

## SUNNYLIK YO'NALISHIDA IYMON MASALASIGA OID BAHSLAR

Mannanova Gulzoda Ravshanbek qizi

Farg'onan viloyati Quva tumani

64-umumiyl o'rta ta'llim maktabi o'qituvchisi

91 134 25 14 [Mannobovaguli@gmail.com](mailto:Mannobovaguli@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sunniylikda vujudga kelga iymon masalasidagi bahs mavzular yoritilgan hamda turli olimlarning kalom ilmi nuqtai nazaridan bergan iymon masalasidagi fikr mulohazalari tadqiq etilgan.

### DEBATES ON THE ISSUE OF FAITH IN THE DIRECTION OF SUNNISM

**Abstract:** In this article, the debate on the issue of faith in Sunni Islam is highlighted, and the opinions of various scholars on the issue of faith from the perspective of the science of the word are researched.

### ДЕБАТЫ ПО ВОПРОСУ ВЕРЫ В НАПРАВЛЕНИИ СУННИЗМА

**Абстрактный:** В данной статье освещается дискуссия по вопросу веры в суннитском исламе, а также исследуются мнения различных ученых по вопросу веры с позиции науки о слове.

Iymonning mohiyati azaldan olam va odamzotning kelib chiqishi, odamning olamdag'i o'rni qanday, inson umrining ma'nosi nimada, zoti bashar nimaga da'vat etilgan, u nimalarga qodiru, nimalarga noqodir singari muammolarni tashkil etib keladi.

Hamma dinlarda iymonga alohida e'tibor beriladi. Iymon barcha dinlarning ustuni sanaladi. Iymonning diniy talqini ham inson faoliyatini oqilona boshqarish, jamiyat hayotida tinchlik,adolat, insonparvarlik, halollik singari fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Chunonchi, zardushtiylik iymoni uch tayanchga: niyat-fikrning sofligiga, so'zning sobitligiga, amallarning insoniyligiga suyanadi.[1.320] Iymonli kishi o'g'rilik va talonchilikdan, o'zgalarning mol-mulkiga ko'z olaytirishdan, birovning haqqiga hiyonat qilishdan, boshqacha aytganda, o'zligiga, ya'ni o'z iymoniga xilos, zid ish qilishdan o'zini tiya biladigan komil insondir. Iymonli odamga yuqorida qayd etilgan hodisalarini qilma, gunoh bo'ladi deb targ'ib qilishning hojati yo'q.

Bundan 1400 yil muqaddam Allohnинг irodasi bilan Muhammad alayhissalom faoliyatlarini tufayli bunyodga kelgan islom ta'llimotiga ko'ra, islomiy iymon mohiyatini Qur'oni karimning quyidagi surasi ochib beradi: "Chin ko'nglim bilan iymon keltirdim: Allohi taologa va uning farishtalariga va uning kitoblariga va uning payg'ambarlariga ham bu dunyo yo'q bo'lib oxirat kuni bo'lmog'iga va qadarga, ya'ni yaxshi va yomon ishlar har qaysisi Allohi

taolodan bo'lmog'iga va o'lgandan so'ng qabrdan tirilib va bularning hammasi haqiqat ekaniga. Dilim bilan guvohlik berurman, albatta Allohdan o'zga ma'bud yo'qdir. Yana guvohlik beraman, albatta Muhammad Allohi taoloning bandasi va barcha bandalariga din ahkomlarini o'rgatmoq uchun yuborilgan payg'ambaridur".<sup>52</sup>

Bizningcha, iymonli odamlarning belgilari quyidagicha tavsiflanadi. Ular mo'min, royish, yuvosh, itoatkor, quruq so'zlik (mahmadonalik)dan qochuvchi, poklikka intiluvchi, shartnomalariga rioya etuvchi, itoatga amal qiluvchilardir.

Hozirgi kunda yer yuzida diniy iymonning bir qancha turlari bo'lib, jahon ahllari aro keng tarqalgani to'rtadir: islomiy iymon, buddaviy iymon, iudaviy iymon, isoviy iymon.[1.320]

Husayn Voiz Koshifiyning ko'rsatishicha, iymonga zamin bo'ladigan asosiy islomiy jihatlar quyidagilardir:

- 1.Olamni, insonni yaratuvchi zot Allohgaga ishonish;
- 2.Barcha insonlarni Haq yo'liga da'vat qiluvchi payg'ambarlarga ishonish; 3.Allohnинг farishtalariga ishonish;
- 4.Payg'ambarlarga yuborilgan muqaddas kitoblarga ishonish;
- 5.Qiyomat kuni qayta tirlishga ishonish;
- 6.Oxiratda bu dunyodagi yaxshi, yomon ishlariga javob berish zarurligiga ishonish;
- 7.Taqdirga ishonish va Alloh nasib etgan rizq-ro'zga, ne'matlarga, mashaqqatlarga rozilik bildirish.[3.296]

Yuqorida fikrlarda islomiy iymonlilikning mezonlari o'z ifodasini topgan. Bular iymonlilikka asos bo'ladigan ma'naviy omillar sanaladi. Diniy iymon yo'naliishlari xilma-xil bo'lgan holda mazmunan oliv bir ibtidoga ishonch ruhining qalbda qaror topishidan kelib chiqib dunyoni anglashdir. Ya'ni bu iymon turlari mazmun jihatdan farqlansa-da, ammo mohiyatan birdir. U ham bo'lsa, biron-bir narsa va g'oyani benihoya sharifu muqaddas, azizu mukarram bilib, kundalik faoliyat va hulq-atvorda ana shu e'tiqoddan kelib chiqib, hattiharakat qilishdan iboratdir. Binobarin, jamiki iymon turi kishi amaliy faoliyati va hulq-atvori dasturi sifatida namoyon bo'ladi.

Abu Homid Muhammad G'azzoliyning ko'rsatishicha, iymon "...payg'ambarlar keltirgan hukmlarni til bilan aytib, dil bilan tasdiqlab, a'zolari bilan amal qilmoqligidan iborat... Ammo iymon bilan jannatga erishgunicha banda ro'parasida qanchadan-qancha baland, mashaqqatli dovonlar bor. Ushbu dovonlardan oshib o'tmay Alloh va'da qilgan jannatga tushmoq dushvor. O'sha dovonlarning eng avvali va eng xatarlisi "Iymon tog'i"dir. Chunki, har bir banda umri poyoniga iymonni shayton dastidan salomat yetkaza olurmi yo yo'q, hamma gap ana shunda" [4.8] Moturidiya ta'limotini ulamolarining ko'pchiligi Moturidiy boshchiligidida iymon faqat qalb bilan tasdiqlashdir, degan fikrga ittifoq qilishgan, ba'zilari esa iymon qalb bilan tasdiqlab, til bilaniqror bo'lishdir, - deyishgan. Ushbu so'zlarni to'g'rilingiga quyidagilar dalil qilib keltiriladi:

<sup>52</sup> Куръони Карим. Таржима ва изохлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Масъул мухаррир: Ҳамидулла Кароматов. – Т.: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2001. 5-суря, 3-оят.

1) Iymon lug‘atda tasdiqdir. U o‘zining ushbu lug‘aviy ma’nosida qolgan boshqa ma’noga ko‘chmagan. Ular bu fikrlarga Alloh taoloning quyidagi so‘zlarini dalil qilib keltirganlar: (Rost gapirsak ham, (baribir) siz bizga ishonuvchi emassiz)<sup>53</sup>.

Abul

Mu’in an-Nasafiy ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Jumladan, bu haqda o‘z asarida quyidagilarni aytadi: iymon tilshunoslar nazdida, tasdiqlashdan boshqa ma’noda emas. Kim bu so‘zni tasdiqlashdan boshqa ma’noda ishlatsa lug‘atagi bir ma’nodagi tushunarli ismni tushunarsiz shaklga solgan bo‘ladi. Bordi-yu bu shaklda ishlatish o‘rinli bo‘lganida edi tilga oid har bir qismda shu taqlid foydalanish mumkin bo‘lardi. Bu hol esa o‘z navbatida tildagi behudalikka, lug‘atni to‘silishiga olib keladi.[6.890]

Ba’zi olimlar yuqoridagi qarashlarga qarshi o’laroq quyidagilarni keltiradilar:

1) Ularga shunday deb aytildi: “Qur’on va hadisdagi lafzlarning tafsiri va ularda nima iroda qilinganligi payg‘ambarimiz (s.a.v.) tomonidan bayon qilingan bo‘lsa, lug‘at ahli va boshqalarni so‘zlari bilan dalil keltirishga hojat qolmaydi.” Shuning uchun ham, faqihlar aytishganki qismlar uchtadir: Birinchisi: chegarasi shariat bilan belgilangan, namoz, zakot singari qismlar; ikkinchisi: Quyosh, oy kabi chegarasi lug‘at bilan belgilangan qismlar; uchinchisi: urf, odat bilan belgilangan ismlar; Misol: (ular bilan totuv turmush kechiringlar)<sup>54</sup>

Namoz, zakot, ro‘za, haj va bosha narsalar haqida payg‘ambarimiz ulardan nima iroda qilinganligini bayon qilib qo‘yanlar. Agar kimki Nabiy (s.a.v.)ning bayon qilganlarini boshqacha qilib bayon qilsa, uning so‘zlari qabul qilinmaydi.[7.584]

2) Kufr iymonning ziddir. Kufr yolg‘onga chiqarish va yuz burishdir. Bu ikkisi qalbda bo‘ladi. Iymon bilan kufrning bir-biriga zidligi ham shundadir. Nasafiy ham mazkur fikrlarni tasdiqlab shunday dedi: Alloh taolo kufrni iymonni muqobiliga qo‘ydi. Bunga dalil sifatida “Baqara” surasi, 256-oyatini keltiradi .(Bas, kim shayton (yoxud butlar)ni inkor etib, Allohga iymon keltirsa[6.890] Salafiylar esa bunga raddiya berib, iymon bilan tasdiqlash so‘zlarining sinonimligi haqidagi yuqoridagi fikrlarni noto‘g‘ri deb biladilar. Ularning fikriga ko‘ra, agar biror kishi xabar keltirsa, u xabar rost bo‘lsa xabarni tasdiqlayman deydi. U xabarga iymon keltiraman demaydi. So‘zlarini isbotlash maqsadida Qur’oni Karimdag‘i (Bas, Lut unga iymon keltirdi) “Ankabut” surasi 26-oyatni keltiradi.[9.584]

Iymon lafzi faqtgina ayb haqidagi xabar yuzasidan ishlatiladi. Bir kishi quyosh chiqdi desa, xabar rost bo‘lsa, tasdiqlaymiz - deymiz, biroq iymon keltirdik deb aytmaymiz. Moturidiyning ta’limotiga ko‘ra, Alloh taolo iymon bilan amallarni orasini ajratib qo‘ydi. Ko‘pgina oyatlarda amal iymonga atf qilingan (ya’ni, bog‘lovchi yordamida bog‘lanib kelgan). Atf - esa bir-biriga o‘xshamaslikni taqazo qiladi. Alloh taolo mo‘minlarga amalni farz qilishdan ilgari iymon keltirganlar deb xitob qilgan. Shuning o‘zi amalni iymonga kirmasligiga dalil bo‘ladi. Nasafiy bu haqda: Alloh taolo iymon va barcha

<sup>53</sup> Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Масъул мухаррир: Ҳамидулла Кароматов. – Т.: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2001. 12-сурा, 17-оят.

<sup>54</sup> Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Масъул мухаррир: Ҳамидулла Кароматов. – Т.: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2001. 4-сурा, 19-оят.

ibodatlarni qayd qilgan qismlar bilan ajratib qo‘ydi. Misol qilib Qur’oni Karimdag'i (Allohning masjidlarini faqat Allahga va oxirat kuniga iymon keltirgan, namozni mukammal qilgan, zakot bergen, faqat Allohdangina qo‘rqqanlar obod qilurlar, deb dalil sifatida oyatni keltiradilar. Yana shuningdek, (albatta, iymon keltirib, ezgu ishlarni qilgan va parvardigorlari (toati)ga bo‘ysunganlar, ana o‘shalar jannat ahlidandirlar, ular u yerda mangudirlar)<sup>55</sup> qilib keltiradi. Shuningdek, Allah taolo biror narsaga buyruq berib, agar mo‘min bo‘lsangizlar, - deya xitob qilishi ham mazkur fikri tasdig‘i bo‘ladi. Yana Allah taolo Ey mo‘minlar, - deb xitob qilishi so‘ngra, amallarga buyurishi, iymon amallar bilan bo‘ladi, degan fikri bekor qiladi. Misol sifatida Allah taoloning (Ey iymon keltirganlar, taqvoli bo‘lishingiz uchun sizlardan oldingi(ummatt)larga farz qilingani kabi sizlarga ham ro‘za farz qilindi), - degan oyatini keltirishimiz mumkin. Allah taolo kufr haqida shunday dedi: (kufrdan kofir bo‘lganlarga aiting, agar (kufrdan) to‘xtasalar, o‘tmish gunohlari kechirilur)<sup>56</sup> kufrdan to‘xtashlik iymon vositasida vujudga keladi. Agar amallarni barchasi iymon bo‘lganda edi, kufrdan to‘xtagan kishi barcha toatlarni qilmaguncha to‘xtaguvchi bo‘lmas edi. Allah taolo iymonni solih amallarni bajarishlik uchun quyidagi oyat bilan shart qilib qo‘ydi. (Bas, kim mo‘min bo‘lgan holida yaxshi amallardan qilsa uning say‘i-harakati zoe bo‘lmas. Biz uni yozib olguvchimiz. Agar iymon barcha ezgu va yaxshi amallarni ismi bo‘lganida edi, o‘sha narsalarni sharti bo‘lardi va omillar bo‘lmasa mazkur narsalar yuzaga kelishi kerak emas edi. Bu masala yuzasidan ko‘plab dalillarni cho‘zilib ketishdan himoyalash maqsadida zikr etmaymiz.[8.890]

Tahoviyning zikr qilishicha, maslakdoshlarining ko‘pchiligi iymon til bilan iqror bo‘lish va qalb bilan tasdiqlashdir - degan fikrdalar. Yana shuningdek, til bilan iqror bo‘lishlik asli bo‘lmagan, orttirilgan rukndir, - degan qarash egalari ham mavjud bo‘lib, bu fikrlar Abu Hanifa va Moturidiylardan rivoyat qilingan holda shu fikri ilgari surishadi.[10.314] Amalni iymonga atf qilish bir - biriga o‘xshamaslikni taqozo etishi haqidagi dalillarga qarshi tomon quyidagicha javob beradi: agar iymon amal bilan birga kelmasa, bu o‘rinda amal tutish lozim bo‘ladi. Chunki qalbda iymonning borligini amallarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Dalil qilib Qur’oni Karimdag'i quyidagi oyat keltiriladi: (Haqiqiy mo‘minlar, faqat Allah va uning payg‘ambariga iymon keltirib, so‘ngra hech qanday shak-shubha qilmagan va mol-u jonlari bilan Allah yo‘lida kurashgan zotlardir)<sup>57</sup>.

Shuningdek, payg‘ambarimiz (s.a.v)ning: “zinokor mo‘min bo‘lgan holida zino qilmaydi”, yana shuningdek, “kim bizga xiyonat qilsa bizdan emas” kabi hadislarni dalil sifatida keltiradilar. Amalni iymonga atf qilinishi turli xillikni taqozo etmaydi, balki umumiylidkan xususiylikka, to‘liqlikdan bir juz’ga atf qilishlikdir. Misol sifatida quyidagi oyat keltiriladi: (Besh vaqt farz (qilingan) namozlarni, xususan o‘rtalama namozni saqlangiz (o‘z vaqtida o‘qingiz)<sup>58</sup>

<sup>55</sup> Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Масъул мухаррир: Ҳамидулла Кароматов. – Т.: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2001. 11-сурा, 23-оят.

<sup>56</sup> Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Масъул мухаррир: Ҳамидулла Кароматов. – Т.: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2001. 8-сурा, 38-оят.

<sup>57</sup> Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Масъул мухаррир: Ҳамидулла Кароматов. – Т.: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2001. 49-сурा, 15-оят.

<sup>58</sup> Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Масъул мухаррир: Ҳамидулла Кароматов. – Т.: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2001. 2-сурा, 238-оят.

Salaflar iymonni e'tiqod so'z, amal va niyat ekanligiga ijmo' qilishgan. Imom Buxoriy dedilar: Men Hijoz, Makka, Madina, Kufa, Basra, Bag'dod, Shom, Misr va boshqa yerlik aholidan mingdan ortiq odam bilan uchrashdim, men ularni qariyb olti yildan beri taniyman ammo, ularning birortasini din so'z va boshqa amallardur - degan so'zga qarshi chiqqanlarini ko'rmaganman.[7.584] Imom Abdul Barr aytadi: fiqh va hadis ahli iymon so'z va amaldir. Niyatsiz amal yo'q - degan ijmo'ga kelishgan. Bu masala avvalgisi bilan uzviy bog'liqdir. Chunki moturidiya ta'limoti ulamolari iymon tasdiqdir, amallar iymonga kirmaydi, iymonda ko'payishi ham, kamayishi ham yo'q zeroki, tasdiqlash ziyoda yoki nuqsonli bo'lishi mumkin emas. Bizning hujjatimiz shuki, iymon tasdiqdan iborat ekan unda ziyoda va nuqsonga o'rinn yo'q.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad bu haqda quydagilar keltiradi: "Iymonning ziyoda va kam bo'lishi ko'pgina tortishuvlarga sabab bo'lgan masaladir. Lekin ahli sunna va jamoa ulamolari tortishuvlari mohiyatda emas, suratdadir. Ba'zilar to'g'ridan-to'g'ri: iymon ziyoda va nuqsonli bo'ladi, desalar boshqalar iymonning asli bir, ammo unga taalluqli ishlar va amallar ziyoda yoki kam bo'ladi deydir. Bu tortishuvlarga ularning iymonni turlicha ta'riflari sabab bo'lgan. Iymon tasdiq, iqrar va amaldan iboratdir deganlar, iymon ziyoda va noqis bo'ladi deganlar. Iymon tasdiq va iqrordir deganlar, iymon ziyoda yoki noqis bo'lmaydi, lekin amal ziyoda va noqis bo'ladi, deganlar. Ikki taraf quydagi oyatlarni o'z ta'riflariga binoan tafsir qilib, birlari zohiriya ma'noni olgan, bo'lsalar, ikkinchilari amalgalash qiladi.

1. "Vaqtiki, ularga u zotning oyatlari tilovat qilinsa, iymonlarini ziyoda qilur". (Anfol surasi 2-oyat.)
2. "Alloh hidoyatga yurganlarning hidoyatini ziyoda qilur". (Maryam surasi 76-oyat.)
3. "Iymon keltirganlar iymoni ziyoda bo'lur". (Mudassir surasi 31-oyat.)
4. "Iymonlariga iymon ziyoda bo'lishi uchun". (Fath surasi, 4-oyat.)".[7.584]

Dunyoviy ishlarda zohirga binoan hukm chiqariladi. Ulamolarimiz islom musulmonlar jamoasi haqidir, iymon Allah taolonining haqidir, dedilar. Iymon qalbga bog'liq haqiqat bo'lib, uning haqiqatidan yolg'iz Allah taolonining o'zidan boshqa birorta zot xabardor bo'la olmaydi. Bu Allah taolonining o'ziga xos haqiqatdir. Iymon bo'yicha bahoni ham, mukofat yoki jazoni ham faqatgina Allohning taolonining o'zi beradi. Mo'min-musulmonlar esa, zohiriya alomatlarga qarab muomala qiladilar. Ularning odamlar ichidagi haqiqatni bilishga imkonlari yo'q va bu narsa ulardan talab qilingan ham emas.

Mo'minlik sifati bilan sifatlangan kishi uch bo'ladi: 1. Allah taolonining dini islomni ado qiladi. 2. Islomni hammasini emas, balki ba'zisini ado qiladi. 3. Islomdan boshqa dinni tanlaydi. Kimki birinchisini qilsa, u ana shu yo'lni tanlabdi. Kim ikkinchisini qilsa, u islomni din sifatida tanlabdi. Kim uchinchisini qilsa, mo'minlar hovlisidan jahannamga kirur. Ulamolar Islom bu iymonmi yoki undan boshqa narsami, degan masalada ixtilofga borishdi. Oldilariga qo'yilgan savol agarchi islom iymondan boshqa narsa bo'lsa uni bog'lovchisi yoki undan uzib qo'yishni shart etuvchi omil bormi? Ba'zilar har ikkalasi bir narsadir desalar, ba'zilar esa bu ikki tushuncha o'zaro bir-biriga bo'linmaydi, - dedilar. Uchinchi qarash vakillari esa har ikkalasi ikki xil tushuncha bo'lishiga qaramay, biri ikkinchisiga bog'liqdir,

dedilar.[11.154] Biz mazkur uch xil qarashning xulosalarning birinchisi lug‘at taqazosi bois vujudga kelgan bo‘lsa, ikkinchi xulosaning sababi shariat nazarda tutilgan omildir va nihoyat oxirgi qarashga to‘xtalsak, har ikki tushunchani dunyo va oxiratdagi xukmi yuzasidan aytligan, deb aytamiz. Islom va iymon bir ma’noni ifoda etishiga qarshi chiqqan ba’zi olimlar Moturidiyning fikrlariga quyidagicha raddiyalar beradilar: “Moturidiya ta’limoti ulamolarining keltirgan sami’ dalillari o‘zlariga qarshi dalillardir. Xususan, “Oli-Imron” 85 va “Moida” 3-oyatlari bo‘lib, zero, ushbu oyatlarda Alloh taoloning huzuridagi maqbul din iymondir deyilmadi. Shuningdek, sizlarga iymonni din qilib berdim ham deyilmadi. Yana kimki iymondan boshqasini din deb bilsa yoki sizlarga iymonni din qilib berdik ham deb aytildi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, iymonning asli qalbning ma’rifatidir va tasdiq so‘zidir. Amal esa shu ilm bilan tasdiqga tobe, ajralmas narsadir. Banda ilm va tasdiq bilangina mo‘min bo‘ladi. Islom esa faqat so‘z bilan amaldir. Ilm va tasdiq islom atamasining bo‘lagi emas. Shuningdek, Nabiy (s.a.v.) kechasi uyqudan turganlarida “Allohim senga taslim bo‘ldim va senga iymon keltirdim”, - deb duo qildilar. Ko‘rinib turibdiki, iymon va islom bir-birini to‘ldiruvchi so‘zlardir. Agar ular birga zikr qilinsa, iymondan botiniy ishlar, islomdan zohiriyl amallar ko‘zda tutiladi. Agar alohida kelsa, ikkalasidan ham bitta narsa, ya’ni zohiriyl va botiniy ishlar tushuniladi Ma’lumki ash’ariya aqidaviy ta’limoti Imom Shofe’iy usullari asosida vujudga kelgan. Shu jihatdan, bu masalada u zotdan qilingan rivoyatlarni keltiramiz.

Ibn Abdulbar Robi’dan rivoyat qilinadi: “Shofe’iyda iymon so‘z, amal va qalb bilan e’tiqoddir. Alloh azza va jallani: “Alloh iymonlaringizni (ya’ni, iymon bilan o‘qigan namozlaringizni) zoe qilguvchi emas oyatini ko‘rmadingmi deyayotganini eshitdim. Ya’ni Baytul-Maqdisga qarab o‘qigan namozlaringiz nazarda tutilib namoz iymon sifatida nomlandi. Shu jihatdan iymon so‘z amal e’tiqoddir.[12.112] Bayoziyning rivoyatiga ko‘ra Shofe’iy: “iymon so‘z va kamayib ko‘payuvchi amaldir”, - dedi. Abu Muhammad Zubayrdan qilingan rivoyatda u zotdan amallarning qaysi biri Allohning nazdida eng afzali? - deb so‘radilar. U zot esa “amallar u bilangina qabul bo‘ladigan narsa”, - dedilar. O’sha narsa nima? - dedilar. Imom bunga javoban: “Undan o‘zga iloh bo‘lmagan, Allohga iymondir” - dedilar. So‘rovchi iymon so‘z va amal yoki amalsiz so‘z ekanidan xabaring yo‘qmi? - dedi. Shofe’iy iymon Alloh uchun bo‘lgan amaldir. So‘z esa o’sha amalni bir qismidir dedi. So‘rovchi menga uning tavsifini keltirganki, toki men uni tushunay dedi. Shofe’iy iymon holatlari, darajalari va tabaqalari bor. Unda tamoman barkamol bo‘lgani va nuqsoni bilan ajraluvchisi bor dedi. U esa iymon ko‘payadi va kamayadimi? - dedi. “Imom”, -ha, deb javob berdi. So‘rovchi bunga dalil nima? - dedi. Shofeiy: “Alloh taolo iymonni odam bolalari a’zolariga farz qildi. A’zolarni qismlarga bo‘ldi, birini boshqasidan ajratib qo‘ydi. Har bir a’zoga boshqa a’zoga yuklatilmagan ma’lum bir vazifa yuklatilgan bo‘lib, birining vazifasini boshqasi takrorlay olmaydi. Undan kishi u bilan aql yurgizadigan, tushunib, idrok etadigan qalbi bu a’zolar qarshilik bera olmaydigan tananing boshlig‘i bo‘lib, buyruqni faqat uni qarashi bilangina amalga oshiriladi. Unda ko‘rqadigan ikki ko‘zi, eshitivchi ikki qulog‘i, ushlab tutuvchi ikki qo‘li, yuruvchi ikki oyog‘i, so‘zlovchi tiliga qalbga yuklatilgan vazifa yuklatilmagan. Iymondan qalbga yuklatilgan narsalar bu iqror, ma’rifat, rozilik, Allohdan o‘zga iloh yo‘q va uning sherigi yo‘qligiga bo‘lgan taslimdir.[12.112]

Ash'ariya e'tiqodiy maktabining yirik namoyondasi Imom G'azzoliy Allohg'a hamd-u sano, payg'ambarg asalavotlar va unga ergashib haq yo'lni mustahkam tutgan sahabalarga va salafi solihinlarga olqishlar aytadi. Ularni "La Ilaha Illalloh" so'zini ibodat darajasiga ko'tarishlariga alohida urg'u beradi. Jumladan, shunday deydi: "Ular mo'jaz ikki shahodat kalimasi o'z ichiga parvardigorning ilohligini, uning sifatlarini, fe'llarini va rasulni payg'ambar haq ekanligini sobit etishlikni o'ziga qamrab olganini yaxshi bilishardi. Shuningdek, iymon asosi to'rt ruknга qurilganini va har bir rukn o'nta asos doirasida ekanligini bilishardi.

Birinchi rukn: Alloh taolonning ma'rifati va uning doirasidagi o'nta asosdir. Bular: Alloh taolonning mayjudligi, uning qadimligi, borligi va u zotning javhar ham jism ham g'araz ham emasligi, biror ma'noda biron jihatdan aloqador emasligi, muhim qaror ham topmaganligi va u zotni ko'rishi va yagona ekanlidir. Ikkinci rukn: U zotning sifati bo'lib, o'nta asosni o'z ichiga qamrab oladi: Bu u zotning borligi tirik, biluvchi, qudratli, iroda etuvchi, eshituvchi, ko'rvuchchi, gapiruvchi, hodisalarda zohir bo'lishidan pokdir. U qadimul kalom, ilm, irodadir. Uchinchi rukn: U zotning fe'llari va unga doir o'nta asos: Bu bandafe'llari Alloh taolonning yaratgan ishi bo'lib, bandalar unga kiritgan narsadir. Bu esa, Alloh taolonning irodasidir.[13.80] Inson yaratish va ijod qilish vositasi ila afzal qilingan bo'lib, Alloh taolo toatidan tashqari narsani yuklash yo'q, u zot faqat shariat bilan vojib etuvchidir. Uning payg'ambarlarni yuborish joiz bo'lib, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning nubuvatlari mo'jiza bilan qo'llab quvvatlangan sobitlikdir. To'rtinchi rukn: camiyat va uning doirasi yuzasidan o'nta asosdir. Yig'ish va yoyish (qiymatni) munkar va nakir nomli farishtalarni savollarni qabr azobini, mezonni, sirot(ko'prigi)ni jannat va do'zahni yaratilganligini, imomlarning hukmlarini, sahabalarni fazilatlarini, ularni tartibiga ko'ra va imomlik shartlariga ko'ra sobit bo'lishidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Очилдиев О., Раҳимжонов Д., Мухамедов Н. Ва бошқ. Диншунослик асослари (ўқув қўлланма). – Тошкент: ТИУ нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2013. – 320 б.
2. Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Масъул мұхаррир: Ҳамидулла Кароматов. – Т.: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2001. 5-сурә, 3-оят.
3. Мўминов А., Йўлдошхўжаев X., Раҳимжонов Д., ва бошқ. Диншунослик. – Тошкент: Мехнат, 2004. – 296 б.
4. Абу Ҳомид Муҳаммад Ғаззолий. "Охиратнома". – Бухоро, 1998. – Б. 8.
5. Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. Масъул мұхаррир: Ҳамидулла Кароматов. – Т.: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2001. 12-сурә, 17-оят.
6. Абуль Муъин ан-Насафий. Табсиратул адилла. – Байрут: "Дарул- кутубил илмийя", 1982. – 890 б.
7. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Сунний ақийдалар. – Тошкент: "Шарқ", 2008.- 584 б.
8. Абуль Муъин ан-Насафий. Табсиратул адилла. – Байрут: "Дарул- кутубил

илмийя”, 1982. – 890 б.

9. Шайх Мұхаммад Содиқ Мұхаммад Юсуф. Сунний ақийдалар. – Тошкент: “Шарқ”, 2008.- 584 б.
10. Ахмад ибн Мұхаммад Шокир. Шарх таҳовия фил ақида ас-салафия. -Ар-Риёд. Визарат аш-шуун ал-исламия вал-авқоф, 2000. -Б. 314.
11. Имом Аби Ҳомид ибн Мұхаммад ал-Ғаззолий. Ихъёи улумиид-дин Ғаззолий. Ихъёи Улумид-дин – Қоҳира. Дор ал-миср ли-ттибаъа, 1997. -Б. 154.
12. Ашъарий Абул Ҳасан Али ибн Исмоил. Ибана ан-Усули-д-дияна. Аббос Саббоҳ нашрга тайёрлаган. -Байрут: Дору-н-Нафоис нашриёти. 1994. – 110 б.
13. Ақоид матнлари. / Нашрга тайёрловчи ва таржимон: Шайх Абулазиз Мансур./ - Тошкент. Тошкент ислом университети, 2006. - 80 б.